

# МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 2 2018 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**  
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Максет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Аманжол АЯПОВ  
Өсербай ӘЛЕЎОВ  
Қадирбай БЕКТУРДИЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Мурадбай ЖУМАНОВ  
Кеңесбай СЕЙДУЛЛАЕВ  
Норбек ТАЙЛАКОВ

**Шөлкемлестиріушілер:**  
**Қарақалпақстан Республикасы**  
**Халық билимлендириу**  
**Министрлиги, ӨЗПИИИ**  
**Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы**  
**Министрлер Кабинети**  
**жанындағы Жоқарғы**  
**Аттестация Комиссиясы**  
**Президиумының 25.10.2007**  
**жыл (№138) қарары менен**  
**дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хэм**  
**хабар агентлиги тәрәпинен 2007-**  
**жылы 5-мартта дизимге алынды**  
**№ОА-044-санлы гууалық**  
**берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,**  
**Ерназар Алакөз көшеси №54**  
**Тел.: 224-23-00**  
**e-mail: uznipnkkf@umail.uz,**  
**mugallim-pednauk@umail.uz**  
**www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

*Журналға келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилицуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген маглыұматларға автор жууапкер.*

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲАМ АДАБИЁТ

<b>Утемуратова Ҳ.</b> Қаллы Айымбетов ҳам халық даналығы .....	4
<b>Тилегенов А.Т., Темирбекова А.О.</b> Қорақалпоқ тилининг яңи алфавити ва имло қондаларига мувофиқ она тили ва адабиётини ривожлантириш методикаси масалалари .....	8
<b>Mavlonova K.</b> Adabiyot darslarida tanosib san'atini o'rganish .....	12
<b>Boranbayeva K.B.</b> Comparing the meaning of grammar across languages .....	16
<b>Boranbayeva K.B.</b> Loss of lexical meaning and fixed position .....	18
<b>Eskarayeva S.A., Torebayeva F.K., Bekmuratova N.A.</b> Using games as one of the most effective ways in language learning .....	21
<b>Eskarayeva S.A.</b> Grammar translation method .....	22
<b>Dauletmuratova Kh., Ozodova S.</b> The role of fairy tales in teaching English language skills .....	24
<b>Dauletmuratova Kh., Kutlimuratova G.</b> Importance of designing listening activities for improving communicative skills .....	28
<b>Moldahmetova Z.K., Eshanova R.M.</b> Information Gap Activities .....	30
<b>Баймуханов Б.И.</b> Использование лингвистической игры на уроках русского языка в пятом классе .....	33

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Teumuratova N.M.</b> Tajiriybeli ustaz – aydin keleshek tiykari .....	36
<b>Бердимбетова А.</b> Доретиўшилиқ сабақларында логикалық пикирлеўди раўажландырыў технологиясы .....	41
<b>Berdimbetova A., Saparniyazova I., Seytimbetova L.</b> Oqiwshilarda miynetke juwapkershilikli qatnasti qaliplestiriwde doretiwshilik pikirlewdiñ ahmiyeti .....	46
<b>Каххорова М.М.</b> Таълим тарбияда ворислик муаммоси .....	49
<b>Элмурзаева Н. Х.</b> Ихтисослаштирилган касб-хунар коллежларида таълим жараёнининг ташкилий ва педагогик хусусиятлари .....	53
<b>Кдырбаева Г. К., Оразғалиева А. М.</b> Инглиз тилини ўқитишда педагогик концепция .....	57
<b>Турғунова А. Т.</b> Геронтопедагогика ёшлар мухитини барқарорлаштиришнинг муҳим омилли сифатида .....	59
<b>Хакимова Д.М.</b> Ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантиришнинг дидактик хусусиятлари .....	63
<b>Гулямов К. М.</b> Мастера ташкентской школы росписи: прошлое и настоящее .....	67
<b>Режаметова Н.И.</b> Использование народной педагогики в процессе обучения дошкольников игре на узбекских народных инструментах .....	71

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Жумабаев А.</b> Ўзбекистоннинг региондағы дослық ҳам тынышлық сиясаты .....	75
<b>Jumabaev A. D.</b> Harakatlar strategiyasi va uyushmagan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar samaradorligi .....	77
<b>Тлеумуратова Н.М.</b> Историография истории культурных связей каракалпаков с узбекскими народами .....	80
<b>Ганиев Т.</b> Берунийдин илимий мийраслары ҳам оның рәң-бәреңлиги .....	84
<b>Есназарова З. Б.</b> Амир Темурнинг ақлоқий фазилатлари ва дунёқараши .....	86
<b>Турсунов Д.</b> Педагогик профилактика орқали ўқувчиларда гоёвий-мафкуравий компетен́тликни шакллантириш .....	90

## Адабиётлар:

1. А.Тилегенов ва бошқ. Қорақалпоқ тилини ўқитишни такомиллаштиришнинг назарий-услубий асосларини комплекс тадқиқ этиш ва концепциясини яратиш» Метод.қўлланма. Нукус Билим, 2009 й. 121-бет.

2. Тилегенов А., Е.Забирова. Современные модели обучения. Учитель Узбекистана, 14 май, 2010 г.

3. Тилегенов А., Жумамуртова Г. Биринчи класс оқуёшыларының жазба тилин раўажландырыў методлары. Устаз жолы газетасы, 2011 жыл. 2-апрель

4. Тилегенов, Г., Жумамуратова, Т. Азизова. Оқуёшылардың сөз байлығын раўажландырыў арқалы қарақалпақ тили хэм әдебиятын оқытыўды жетилистириў. Нөкис 2011 жыл.

5. Кудайбергенов М.С. Қорақалпоқ тили морфонологиясининг баъзи масалалари. Ж. ЎзР ФА ҚБ Хабаршысы, Нукус, 1999, №4-5, 116-117 бетлар.

## РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада қарақалпоқ тилининг янги алфавити ва имло қоидаларига мувофиқ она тили ва адабиётини ривожтириш методикаси масалалари кўриб чиқилган. Шу билан бирга алфавит асосида методик тавсиялар ва қўлланмалар яратиш муаммолари ўрганилган.

## РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается методика развития родного языка и литературы в соответствии с новыми алфавитными правилами каракалпакского языка. В то же время были изучены проблемы создания методологических рекомендации и пособия по алфавиту.

## SUMMARY

This article discusses the methodology for the development of the native language and literature in accordance with the new alphabetic rules of the Karakalpak language. At the same time, the problems of creating methodological recommendations and manuals alphabetically were studied.

## ADABIYOT DARSLARIDA TANOSIB SAN'ATINI O'RGANISH

*Mavlonova K.*

*TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi*

**Таянч сўзлар:** vadiiy matn, tanosib, uyadosh so'zlar, badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlar, estetik zavq, nutq madaniyati.

**Ключевые слова:** художественный текст, идентифицируемые, однородные слова, инструменты художественного изображения, поэтические искусства, эстетическое удовольствие и речевая культура.

**Key words:** artistic text, identifiable, homogeneous words, artistic image tools, poetic arts, aesthetic pleasure, and speech culture.

Yoshlarni madaniy hayot tarziga, turmushdagi ijtimoiy munosabatlarga, ijodiy mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun ona tili darslarida nutq madaniyati, jumladan, muloqot odobi ustida olib boriladigan ishlarni takomillashtirish darkor. Zero, shirinso'z, xushmuomala, o'z fikrlarini to'g'ri, aniq, ixcham, ta'sirchan qilib ifodalay biladigan kishigina muloqotdan ko'zlangan maqsadga erisha oladi. Keyingi davrda o'quv fanining mazmuni va metodlari shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish sari isloh qilib kelinmoqda, chunonchi, mashq materiallari ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan badiiy matnlar hisobiga boyitilmoqda.

Ushbu o'zgarishlar sharofati bilan ona tili o'qitish metodikasida ilk bor 5-9-sinflarda o'quvchilarga so'zlar, morfologik shakllar, sintaktik birliklarni mahorat bilan ishlatishni izchil, ayni chog'da muntazam o'rgatish uchun qulay imkoniyatlar yuzaga keldi va bugungi kunda zaruriyatga aylandi. Ammo bu imkoniyatni yuzaga chiqarishni istagan o'qituvchi

darhol bir qator muammolarga duch keladi: u 5-sinfdan boshlab badiiy matnning til xususiyatlarini o'rgatishni nimadan boshlash, qay mazmunda 9-sinfga qadar davom ettirish, mavzuga mos badiiy matnни qay tarzda ajratish va tanlash; qay tarzda ish olib borish, adabiyot darslari bilan qay mazmunda va yo'sinda integratsiyalash kerak degan va boshqa shu kabi savollar ko'ndalang bo'laveradi.

Ma'lumki, ona tili darslarini adabiyot bilan bog'lab o'rganish badiiy matnни obrazlilikni vujudga keltiruvchi badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga undaydi. Buning uchun esa ushbu vositalar yuzasidan adabiyot darslarida olingan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanish zarur bo'ladi. Lekin adabiyot darslarida badiiy tasvir vositalari va she'riy san'atlar asosan 6-8-sinflarda nazariy o'rganiladi. Bu esa 5-sinfda ko'chma ma'nodagi so'zlarni adabiy tushuncha bo'lmish ko'chimning bir turi - ramz bilan bog'lash imkonini bermaydi. Shuning o'zidan ham bilish mumkinki, ikki o'quv fanining ta'lim mazmunida integratsiyalash yetarli darajada o'ylab chiqilmagan. Ushbu muammoni chuqur o'rganib chiqish dardkor.

7-sinf "Adabiyot" darslik-majmuasida she'riy san'atlardan biri - tanosib haqida nazariy ma'lumot beriladi. Bu yerda aytilishicha, tanosib baytda, umuman, she'riy bandlarda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi. Masalan, "bulbul" so'zi gul, bog', chaman, navo so'zlari bilan, "ka'ba" esa haj, fan, Tangri, ziyorat so'zlari bilan mazmuniy bog'lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi. Bunday yaqinlik so'zlarning o'zaro birikuvchanligi, doimiy aloqaga kirishuvi bilan belgilanadi. Masalan, bulbul so'zi tilga olingach, albatta gul, chaman, bog', navo so'zlari ham tilga olinadi. Bular bulbulning yashash tarzini, ramziy ma'noda oshiqlik sifatlarini ifoda etadi, ya'ni bular bulbul so'ziga ramziy ma'no yuklash uchungina zarur. Aytish mumkinki, tanosib san'ati badiiy tasvir vositasi bo'lishdan ko'ra ko'proq narsa-hodisalarni tasvirlash mazmuni bo'la oladi. Bugungi kunda ular 5-sinf ona tili darslarida o'tiladigan uyadosh so'zlarga yaqin keladi. Zero, "Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub bo'lgan so'zlar uyadosh so'zlar deyiladi".

Ona tili darslarini adabiyot darslarida o'rganiladigan nazariy tushunchalardan foydalangan holda ikki o'quv fanini integratsiyalash o'quvchilarning badiiy tahlilga doir bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va shakllantirish ishida yaxshi samaralar beradi. Gap shundaki, 9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning she'riy baytlarni o'qib, shoir qaysi she'riy san'at turlaridan foydalanganini aniqlash va izohlash so'ralgan nazorat ishida ularning tanosibni yaxshi bilmasliklari ayon bo'lib, o'quvchilar baytdan asosiy tushuncha bilan mutanosib qo'llangan so'zlarni topish va izohlashning uddasidan chiqq olmaganlar. Ko'rinadiki, adabiyot darslarida tanosib ustida yetarlicha ish olib borishning imkoni bo'lmagan. Shuning uchun ona tili darslarining o'z imkoniyatlari bilan yordamga yo'naltirilgani maqsadga muvofiqdir.

Tajriba-sinov materiali asosidagi darslar 7- sinf adabiyot darslarida yetti dars davomida tashkil etilishi mo'ljallandi.

1-dars. 5 daqiqaga mo'ljallangan nazorat ishi. Dastlab o'quvchilarning she'riy san'at turlaridan biri bo'lgan tanosibni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida nazorat testi o'tkaziladi.

Baytda she'riy san'atning qaysi turi ishlatilganligini aniqlang.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngilni,

Ayoqing qanda bo'lsa boshim anda. (Atoiy)

A. Tashbeh B. Tanosub D. Talmeh E. Tajnis

Bunda o'quvchilar soch, ko'ngil, ayoq, bosh so'zlari o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlab, baytda qo'llangan she'riy san'at tanosib ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

9-sinflarda amalga oshirilgan nazorat ishlarida aksariyat o'quvchilar baytda shoir qo'llagan she'riy san'atning tanosib ekanini aniqlay olmaganlar, ko'chim qo'llangan joyda

o'xshatish, talmeq qo'llangan joyda tanosib, tanosib qo'llangan joyda tajnis, tazod; tajnis qo'llangan joyda qiyoslash, tashbeh kabi chalkash holda ataganlar. Ma'lum bo'lishicha, yoshlar baytda shoir foydalangan she'riy san'at turlarini aniqlashda tayanadigan bilimga yetarli darajada ega emaslar. Shu boisdan biz test topshirig'ini ham ta'limiy, ham nazorat uchun xizmat qiladigan tarzda ifodaladik. Chunonchi:

Baytda shoir she'riy san'atning tanosib turidan foydalanganini aniqlashda nimaga e'tibor berish kerakligini aniqlang.

- majoziy ma'nodagi so'zning bor-yo'qligi;
- mutanosib tanlangan so'zlarning bor-yo'qligi;
- shakldosh so'zlarning qofiya bo'lib kelganligi;
- narsa-buyumlarning odamlar bajaradigan ish-harakatlarni bajarishi;
- shaxs, predmet va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlanishi.

2-dars. O'quvchilar bilan birgalikda quyidagi bayt o'qiladi:

To g'aming changinda kuydi xasta ko'nglim udtek,

Nola-u i(n)gramakni mendin o'rgandi rubob.

O'qituvchi o'quvchilardan 7-sinfda adabiyot darsida o'rganilgan she'riy san'atlardan bo'lgan tanosib haqida nimalarni bilishlarini savol-javob orqali aniqlaydi va qoidani eslatadi.

“Tanosub- baytda, umuman she'riy bandlarda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi”. Ushbu qoidaga qo'shimcha tarzda o'qituvchi shoirlar biror hodisani yorqinroq, ishonchliroq tasvirlash uchun tanosibdan foydalanishlari haqida ma'lumot beradi. Keltirilgan baytdagi chang, ud, rubob nomli musiqa asboblarning mutanosibligi, shu bilan birga, g'am, kuymoq, xasta, nola, ingramoq so'zlarining lirik qahramon ruhiyatini ifodalashga mosligi aniqlanadi. Dars davomida ushbu ta'limiy ishlarga 5-7 daqiqa vaqt sarflanadi.

Tanosibni o'rganishning qiyin tomoni shundaki, uni aniqlash uchun baytdagi so'zlarning bir tushuncha atrofida mutanosib ravishda uyusha oladigan, ma'lum ma'noda uyadosh so'zlar kabi matnii uyadoshlik hosil qila oladigan so'zlarning bor yoki yo'qligini ajrata bilish kerak.

O'quvchilarga tanosib haqida tushuncha berib, uni qanday qilib aniqlash lozimligini ma'lum qilgach, bayt o'qilsa va shoir unda qaysi she'riy san'at turini qo'llaganligini topish so'ralsa, tabiiyki, javob tanosib bo'ladi. Bu o'rinda javob uchun tahlilga zaruriyat yo'q: tanosib o'rganilyapti, o'qish uchun bayt keltirildimi, demak, ushbu baytda tanosib qo'llangan bo'ladi. O'quvchilar o'ylamasdan javob bermasliklari uchun dastlabki mashq baytni o'qib, o'zaro mutanosiblikni tashkil etadigan so'zlarni topishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiy qalamiga mansub baytni o'qing va berilgan topshiriqni bajaring.

Jonim badaning shifosi bo'lsin,

Boshim qadamning fidosi bo'lsin.

Baytda she'riy san'atning qaysi turi ishlatilganligini yozing va qisqa izohlang.

O'quvchilar baytdagi “jon” bilan “badan” va “bosh” bilan “qadam” so'zlaridagi mutanosiblikni aniqlaydilar. Bundan tashqari, jonning badanga shifo bo'lishi bilan boshning qadamga fido bo'lishi o'rtasidagi uyg'unlikni izohlaydilar.

4-dars. O'quvchilar dastlabki 2-va 3-darslarda baytdan tanosibni hosil qiluvchi so'zlarni aniqlashni o'rganadilar, tanosib san'atining asosiy belgisi tanosib so'zlari ekanligini bilib oladilar. Ana shu bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida avval tanosib san'atida bitilgan baytni boshqa san'atlar asosida yozilgan baytlar bilan taqqoslash, shu asosda tanosibni boshqalaridan ajrata bilish talab etiladigan tarzda topshiriq tuziladi.

Quyidagi uch baytni o'qing. Tanosibda yozilgan baytni aniqlang va izohlang.

*Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz,*

*Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma. (Lutfiy)*

*Qosh-u ko'z-u kirpugingning fitnasidin yo'q kalom,*

*Ul balodin, netayin, kelmasa bir-bir ustina. (Ogahiy)*

*Yo rab ul shahd-u shakar yo labdurur?*

*Yo magar shahd-u shakar yo labdurur? (Alisher Navoiy)*

O‘quvchilarga tanosibda bitilganligi aniqlangan baytni qayta o‘qib, tanosibga oid so‘zlarni aniqlash va izohlash topshirig‘i beriladi hamda ular qay tartibda va nima sababdan qo‘llangan so‘raladi. O‘quvchilar tanosib so‘zlari (mutanosib ravishda qo‘llangan so‘zlarni) aytib, baytni izohlaydilar. O‘quvchilardan shoir nima uchun ushbu so‘zlardan foydalangani so‘raladi.

5-dars. Bu darsda ham 4-darsda mustahkamlana boshlagan bilimlarni qat‘iylashtirish, ko‘nikmalarni malakaga aylantirish mazmunida ish olib boriladi. O‘quvchilar bilan birgalikda quyidagi baytlar o‘qiladi:

*Oraz Quyoshin ochib, ashki qurug‘an ko‘zni*

*Ko‘p hajrda yig‘lading, bir vaslda ham yig‘lat. (Alisher Navoiy)*

*Sabr qilsang, guradin halvo bitar;*

*Besabrlar o‘z oyog‘idan yitar. (Gulxaniy)*

*Vah, muhabbat ko‘yida qon yig‘ladim,*

*Yetti iqlim g‘arq bo‘ldi yoshima. (Mashrab)*

O‘quvchilar tegishli baytni aniqlab, mustaqil holda oraz, ashk, ko‘z hamda hajr va vasl so‘zlari tanosibni yuzaga keltirganini ta‘kidlab, shu so‘zlari bo‘lganligi uchun baytda tanosib san‘ati qo‘llangan deb hisoblanadi, degan izohni aytadilar. Shoimring so‘z ishlatish mahoratiga o‘quvchilar e‘tibori qaratiladi.

6-dars. O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini quyidagi kichik guruhlar bo‘ladi: “Tadqiqotchilar”, “Bilimdonlar”, “Talqin qiluvchilar”, “Tanqidchilar”, “Baholovchilar”. Har bir guruhga savol yoki topshiriq yozilgan kartochka tarqatadi:

Quyidagi ruboiyda qaysi she‘riy san‘at qo‘llanganini aniqlab, baytni tahlil qiling.

*Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,*

*Yuz birla so‘zung yaxshi, dudog‘ing yaxshi,*

*Eng birla menging yaxshi, saqoqing yaxshi,*

*Bir-bir ne deyin boshtin-oyog‘ing yaxshi. (Alisher Navoiy)*

Ruboiy tahlili ustidagi jami ishlar uchun 10 daqiqa ajratilishini ma‘lum qiladi.

“Tadqiqotchilar” guruhi a‘zolari topshiriq shartiga ko‘ra ruboiydan tanosibni, bu san‘atni yuzaga keltirgan ko‘z, qosh, qaboq, yuz, so‘z, dudoq, eng, meng, saqoq so‘zlarni topadilar, ifodalanihini aytadilar.

“Bilimdonlar” guruhi ruboiy asosida qofiyadoshlikka, ohangdoshlikka ta‘rif beradilar.

“Talqin qiluvchilar” guruhi so‘z ishlatish mahorati xususida fikr yuritadilar, shoimring xulosasini talqin qiladilar, ya‘ni yorning hamma unsurlari go‘zal – bir-biriga mos holda, chunki uning “boshtin- ayog‘i yaxshi”!

“Tanqidchilar” guruhi uchala guruh bergan javoblardagi yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatib, tuzatishga harakat qiladi. Shuningdek, guruhlar qo‘shimcha ravishda yordagi hamma unsurlarining nomlanishiga e‘tibor qaratishadi.

“Baholovchilar” guruhi to‘rtala guruh faoliyatiga ball berib boradilar, oxirida bu ballarni e‘lon qiladi.

7-dars. O‘quvchilarning she‘riy san‘atlardan tanosib haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yakuniy nazorat o‘tkaziladi.

Agar o‘quvchilarga quyidagi baytni o‘qib, shoir qaysi she‘riy san‘at turidan foydalanganini aniqlash topshirilsa, ular ko‘p o‘ylamasdan tanosibni aytishlari mumkin. Taqqoslash asosidagi nazorat ishi olingan bilimlarni ishga solishni taqozo qiladi. Shu niyatda uchta bayt berilib, she‘riy san‘at turini tahlil asosida aniqlashni topshirish to‘g‘ri bo‘ladi.

Topshiriq:

Quyidagi baytlarni o‘qib, har birining tagiga qaysi she‘riy san‘at qo‘llanganini aniqlab, tegishli so‘zlarni ajratish orqali qisqa izohlang.

*Bog'larda sensiz, ey sarvqomat,  
Qumridek etdim oh-u nadomat.* (Muqimiy)

Tuturmen ko'zki, ko'rsam orazingni,-

*Ki derlar: "Oqqan ariqqa oqar su(v)".* (Lutfiy)

Olma yanoqing ko'rgach, men banda nechuk o'lmay?

*Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozuk.* (Lutfiy)

O'quvchilar birinchi baytda tashbeh qo'llanganini aniqlab, qumridek so'zini ajratishadi. Ikkinchi baytda she'riy san'atlardan irsoli masal qo'llangani ta'kidlab, Oqqan ariqqa oqar su(v)ning maqol ekanini aniqlashadi. Bugungi kunda ushbu maqol "Oqqan daryo oqaveradi" tarzida qo'llanishini izohlashadi.

O'quvchilardan uchinchi baytda tanosib san'ati qo'llangani va bu yanoq, ko'z, ayuq, dahan so'zlari orqali ifodalanganligini aniqlab, yozishlari kutiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. – T.: "Sharq", 2009. – 368 b.

2. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Qayta ishlangan 3-nashri. – T.: "Sharq", 2013. – 368 b.

3. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/ N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. 2-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2007. – 224 b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limda she'riy san'atlardan biri – tanosibni o'rganishda ona tili darslarining o'z imkoniyatlari bilan yordamga yo'naltirilishi masalalari va bu borada ta'limni tashkil etish texnologiyalari yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье обсуждается, как использовать уроки родного языка с их собственными возможностями в изучении одного из поэтических искусств в общем среднем образовании и технологии организации образования в этом отношении.

#### SUMMARY

This article discusses how to use the lessons of the native language with their own capabilities in learning one of the poetic arts in general secondary education and the technology of organizing education in this regard.

## COMPARING THE MEANING OF GRAMMAR ACROSS LANGUAGES

*Boranbayeva K.B.*

**Таянч сўзлар:** til, tuzilish, morfema, rivojlanish, boy.

**Ключевые слова:** язык, структура, морфема, развитие, богатый.

**Key words:** language, structure, morpheme, develop, rich.

A characteristic and universal property of natural languages is the use of grammatical morphemes - morphemes which belong to closed classes and exhibit grammatically regular distributional properties-alongside lexical ones. Grammatical morphemes perform a large share of the work of grammar, for perhaps more than distinctive position (word order), grammatical morphology is the major signal of grammatical and discourse structure, as well as temporal and aspectual relations.

The formal properties of grammatical morphemes have been well-studied and a rich terminology has been developed to deal with differences of expression properties. Thus we